

**MAHALLALARDA YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI:  
SUB'EKTLAR VA GURUHLAR**

**Ilxomov U.U. –**  
*O'zMU o'qituvchisi.*

Jahonda yoshlarga bo'lgan e'tibor yuqori darajada ekanligini inobatga olsak, bugungi kunda yoshlar muammosi dolzarb hisoblanadi. Yoshlar muammolarinig o'rganilish darajasi ijtimoiy institutlar bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Aynan shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalla ijtimoiy institut sifatida nafaqat boshqaruv tizimi, balki yosh avlodning tarbiyalanishi, ijtimoiylashuvi va qadriyatlar uzluksizligini ta'minlaydigan murakkab kommunikativ makondir. Uning ichki tuzilmasi, subektlararo munosabatlar, yoshlar segmentining ijtimoiy holati hamda nazorat-tashkiliy mexanizmlarini talqin etishda zamonaviy g'arb va rus sotsiologiyasiga qo'shimcha ravishda Sharq sotsio-falsafiy merosi ham beqiyos nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq allomalaridan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar jamiyatning barqarorligi va yosh avlodning yetuk bo'lib shakllanishini mahalla, jamoa va ijtimoiy tartibning uyg'unligi orqali izohlaganlar. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat kichik birliklar orqali o'zini boshqarishi, o'zaro yordam va axloqiy uyg'unlik asosida rivojlanishi zarurligi ta'kidlanadi [1, 56;61]. Bu g'oya hozirgi mahalla tizimining sotsiologik mohiyati – kichik hududiy birlikning o'zini-o'zi boshqarish va yoshlarni ijtimoiylashtirishdagi markaziy rolini mustahkamlaydi.

Yana bir mutafakkir olimning fikrlarini aytib o'sak, Ibn Sino esa "Tadbir al-manzil" (Xonadon boshqaruvi) risolasida yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy fazilatlar haqida gapirar ekan, jamiyatning kichik bo'lagi – oila va mahalla – axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi birlamchi makon ekanini alohida ta'kidlaydi [2, 102;109]. Bu esa mahalladagi yoshlar subektlarining o'zaro aloqalari va tarbiyaviy mexanizmlarini funksional nuqtayi nazardan tushuntirish imkonini beradi. Amerikalik sotsiolog T. Parsonsning struktural-funksional modeli bo'yicha mahalla tizimi AGIL funksiyalariga bog'liq bo'lishini aytib o'sak ya'ni: adaptatsiya, maqsadga yo'naltirish, integratsiya va legitimlashtirish. Sharq mutafakkirlari ham aynan shu funkcionallikka yaqin g'oyalarni ilgari surgan: masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da jamoaviy uyg'unlik (integratsiya), to'g'ri boshqaruv (maqsadga yo'naltirish) va adolat (legitimlashtirish)ni jamiyat barqarorligining tayanchi sifatida ko'rsatadi [3, 244; 250]. Shu ma'noda, zamonaviy mahalladagi yoshlar bilan ishlash tizimi qadimiy Sharq falsafasidagi axloqiy-siyosiy g'oyalarning amaliy ko'rinishi sifatida talqin etilishi mumkin.

Sharq mutafakkirlaridan Alisher Navoiybi merosida ham kommunikativ birlashuv alohida e'tiborga olingan: Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" da jamoat bilan maslahat, bir – birini tinglash, axloqiy muloqotning jamiyatni mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [4, 112; 120]. Mahalla jamiyatning eng qadimiy va bir vaqtning o'zida eng barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, unda yoshlar bilan ishlash jarayonlari avlodlar almashinuvi, ijtimoiy nazorat, integratsiya va ijtimoiylashuv kabi asosiy funksiyalarni mujassamlashtiradi. Mahallanining institut sifatida shakllanganligi E.Dyurgeym ta'kidlaganidek, jamiyatning "axloqiy tuzilmasi"ni mustahkamlovchi kollektiv ong va umumiy qoidalarga tayanadi [5, 38;40]. Shu bois mahallada yoshlar bilan ishlash tizimi – faqat tashkiliy faoliyat emas, balki ijtimoiy institutlararo o'zaro ta'sirning murakkab mexanizmidir. "Tizim", "sub'ekt", "guruh" va "mexanizm" kabi kategoriyalar ushbu bo'limning nazariy asosini tashkil etadi. Tizim tushunchasi T. Parsons tomonidan jamiyatning muvozanatini ta'minlovchi funksional elementlar majmui sifatida talqin qilingan bo'lib, har bir ijtimoiy tizim o'zining adaptatsiya, integratsiya va maqsadga yo'nalganlik kabi funksiyalarini bajarishi lozim [6, 15; 25]. Yoshlar bilan ishlash tizimi ham mahalla doirasida mazkur funksional tamoyillarga asoslanadi.

Niklas Lumannning avtopoezis haqidagi qarashlariga ko'ra, tizimlar o'zlarini kommunikatsiya orqali qayta ishlab boradi [7, 34; 36]; mahalladagi yoshlar bilan ishlash subektlari ham aynan muntazam kommunikativ aloqalar orqali barqarorlikni ta'minlaydi. "Sub'ekt"

tushunchasi Giddensning strukturatsiya nazariyasida agentlik (agency) bilan bevosita bog'liq bo'lib, subektlar ijtimoiy tuzilma tomonidan cheklanadi-yu, shu bilan birga uni takror ishlab chiqaradi [8, 2; 5]. Mahalla tizimidagi subektlar – rais, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ta'lim muassasalari vakillari va jamoatchi faollar – aynan mana shunday ikki yoqlama rolni bajaradi. “Ijtimoiy guruh” kategoriyasi esa Mannheimning avlodlar nazariyasiga asoslanadi; u yosh guruhlarini faqat biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy tajriba orqali shakllanuvchi birlik deb ta'riflaydi [9, 276; 280]. Yoshlar sohasiga xos asosiy qadriyatlar sirasiga, avvalo, yoshlarning shaxs sifatidagi subektlilik maqomini hurmat qilish, ushbu sohani jamiyat miqyosida e'tiborda saqlash, shuningdek, yoshlar bilan ishlash jarayonida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning yuqori ijtimoiy nufuzini e'tirof etish kabi jihatlarni kiritish mumkin [10, 32]. Shuni aytishimiz joizki, mahallada yoshlar bilan ishlash jarayonini ilmiy talqin qilish, avvalo, uni ijtimoiy tizim sifatida tushunishni talab qiladi. Ijtimoiy tizimlarning ichki strukturasi, subektlarning funksional o'rni va ularning o'zaro aloqadorligida sotsiologiyaning yetakchi klassik va zamonaviy nazariyalarida chuqur ishlab chiqilgan.

Xususan, yoshlar bilan ishlash tizimini T. Parsonsning funksionalizm modeli, N.Lumannning tizimlar haqidagi autopoiesis konsepsiyasi, shuningdek, sovet va post-sovet davri rus sotsiologik an'analari doirasida shakllangan ijtimoiy boshqaruv nazariyalari yordamida ochib berish mumkin. Bu o'rganilishda mahalla darajasidagi yoshlar muammolari subektlari va guruhlararo munosabatlarini aytishimiz mumkin. Amerikalik sotsiolog olimning nazariyalariga tayangan holda, olim tomonidan ishlab chiqilgan AGIL modeliga ko'ra, har qanday ijtimoiy tizim barqaror ishlashi uchun to'rt funksiyani bajarishi shart: moslashuv (A), maqsadga yo'nalish (G), integratsiya (I) va naqlarni legitimlashtirish (L) [11, 89; 110]. Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimi ham shu funksional zanjir asosida harakat qiladi: resurslarni taqsimlash hamda yoshlar ehtiyojlariga moslashish – moslashuv; mahalla kengashi va yoshlar subektlarining maqsadlar qo'yishi – maqsadga yo'nalish; ijtimoiy guruhlarini uyg'unlashtirish – integratsiya; mahalla qadriyatlari, “mahallabay ishlash” tamoyillari – legitimlashtirish mexanizmlarini ifodalaydi.

Demak, mahalladagi yoshlar bilan ishlash tizimi funksional yaxlitlikni ta'minlovchi kichik subsystema bo'lib xizmat qiladi. Yana bir nemis sotsiolog olimning nazariyalarini keltirib o'sak, N. Lumannning tizimlar nazariyasi esa mahalladagi jarayonlarni yanada dinamik ko'rsatishni va tushunishni osonlashtiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Lumannning fikricha, ijtimoiy tizimlar insonlar emas, balki kommunikatsiya orqali yashaydi va o'z-o'zini takror ishlab chiqaradi (autopoiesis) [12, 34; 51].

Shu jihatdan, mahalla tizimidagi subektlar – oqsoqollar, yoshlar yetakchilari, hududiy komissiyalar, masjid yoki jamoat vakillari – o'zaro muloqot orqali umumiy ma'nolar maydonini yaratadi. Ushbu kommunikativ maydon tizimni “tirik” qiladi, uni qayta tashkil etadi va yangilaydi. Mahalla muhitida yoshlarning ehtiyojlari, ijtimoiy faolliklari, qadriyatlar transformatsiyasi aynan mana shu kommunikativ jarayon ichida shakllanadi. Yevropa mamlakatlarida yoshlar bilan bog'liq masalalarni hal etish, ularga doir strategik dasturlar, ijtimoiy loyihalar va ko'lamli tashabbuslarni amalga oshirish jarayonini yagona tushuncha ostida birlashtirish maqsadida mintaqaviy va milliy darajadagi siyosiy-huquqiy hujjatlarda «yoshlar ishi» termini qo'llaniladi.

Aslida bu atama xalqaro amaliyotda keng tarqalgan “youth work” so'z birikmasining funksional ekvivalentidir. Biroq mazkur terminni o'zbek tiliga bevosita tarjima qilish muayyan murakkablikni yuzaga keltiradi, chunki u bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy-professional faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi. Xorijiy tajriba, ilmiy adabiyotlar va Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi kabi institutlar tomonidan e'lon qilingan dasturiy hujjatlarni tahlil qilish asosida “youth work” tushunchasining mazmunini quyidagicha izohlash mumkin:

– yoshlar muammolariga yo'naltirilgan ijtimoiy ish faoliyati, ya'ni yoshlarning hayotiy ehtiyojlari, ijtimoiy adaptatsiyasi, ruhiy-psixologik qo'llab-quvvatlashini ta'minlashga qaratilgan xizmatlar majmui;

– davlatning yoshlar siyosatini amaliy bosqichda amalga oshirishni ta'minlaydigan institutsional va tashkiliy faoliyat turi, unda profilaktika, ma'rifat va ijtimoiy faollikni oshirish choralari muhim o'rin tutadi;

– og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan yoki inqirozga yuz tutgan yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, favqulodda vaziyatlarda ularga kompleks yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya va moslashuv jarayonlarini tashkil etish;

– yoshlarning aniq ijtimoiy, ma‘naviy, iqtisodiy yoki huquqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan xizmatlar tizimi, masalan, bandlik, ta‘limga kirish, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy himoya yoki jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq faoliyatlar [13, 57]. Shunday qilib, Yevropa tajribasida “yoshlar ishi” faqat bitta kasbiy yo‘nalish emas, balki yoshlarning ijtimoiy farovonligi, huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan ko‘p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. Mazkur tizimning asosiy vazifasi – yoshlarni jamiyatning to‘laqonli subekti sifatida qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy ishtirokini ta‘minlash va salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishdan iboratdir. Rus sotsiologik maktabi vakillari – masalan, Y.G.Volkov hamda V.A.Yadov – jamiyatning ijtimoiy strukturasi va guruhlararo o‘zaro ta‘sirni boshqarish mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratgan. Yadovning “dispozitsion konsepsiyasi”ga ko‘ra, ijtimoiy guruhlar xulqi ularning qadriyat, motiv va ijtimoiy normalariga asoslanadi [14, 57; 63]. Bu yondashuv mahalladagi yoshlar guruhlarini differensial tahlil qilish imkonini beradi: talaba yoshlar, ishchi yoshlar, migratsion tajribaga ega yoshlar, ijtimoiy xavf guruhiga yaqin bo‘lgan yoshlar tizimda turlicha motivatsiyalar bilan ishtirok etadi. Ular bilan ishlash mexanizmlarini ham shu dispozitsion model asosida farqlash zarur bo‘ladi.

Zamonaviy ingliz-amerika sotsiologiyasida esa R. Darendorf va P. Blau tomonidan ijtimoiy rollar, vakolatlar va hokimiyat resurslari tahlili ilgari surilgan. Darendorfning konflikt modeli shuni ko‘rsatadiki, har qanday ijtimoiy tizim ichida hokimiyat resurslari teng taqsimlanmagan guruhlar mavjud [15, 112; 130]. Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimi ham aynan resurslar, imkoniyatlar va ijtimoiy kapitalning taqsimlanishiga qarab turlicha shakllanishi mumkin.

Har qanday ijtimoiy sohaning markazida, odatda, shu sohaga mos keluvchi ijtimoiy institut mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy institut esa jamiyat hayotida turli subektlarning o‘zaro munosabatlari va faoliyatlaridan tarkib topgan barqaror tizimni ifodalaydi. Ijtimoiy hayot subektlariga shaxslar, jamoaviy tuzilmalar, shuningdek davlat boshqaruvi va hokimiyat organlari kabi birliklar kiradi [16, 43].

Bugungi kunda yoshlarga e‘tibor yuqori bo‘lganligi uchun mahallalarda yoshlar yetakchilari mahalla yoshlarini qo‘llab-quvvatlash uchun birlashtirilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlar muammosi dolzarb ayniqsa o‘z yo‘lini topishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan yoshlarni o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimining shakllanishi ko‘p omilli va murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning samaradorligi subektlar o‘rtasidagi hamkorlik, resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishi va yoshlar guruhlarining o‘ziga xos ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlashga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mahalla instituti yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirishda asosiy mahalliy maydon sifatida faoliyat yuritadi. Tizimning barqaror ishlashi uchun ta‘lim muassasalari, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, diniy-ma‘rifiy tuzilmalar hamda jamoatchilikning institutsional hamkorligi zarurdir.

Shuningdek, yoshlarning differensial guruhlar bilan ishlashda ularning ijtimoiy holati, qiziqishlari, muammolari va rivojlanish imkoniyatlari chuqur tahlil etilishi kerakligi aniqlanadi. Har bir guruhga yo‘naltirilgan yondashuv tizimning natijadorligini oshiradi. Mahalla sharoitida yoshlar bilan ishlashning shakllanishi, avvalo, aniq mexanizmlar—profilaktika, ma‘rifat, ijtimoiy xizmatlar, bandlikni qo‘llab-quvvatlash va bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish kabi yo‘nalishlarning uyg‘unligini talab qiladi. Olingan natijalar shuni anglatadiki, mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada rivojlantirish uchun institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va zamonaviy ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yoshlarni jamiyatning to‘laqonli subekti sifatida qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993. – B. 56–61.
2. Ibn Sino. Tadbir al-manzil. – Tehron: Markaz al-buḥūth, 1984. – P. 102–109.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 244–250.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2010. – B. 112–120.
5. Durkheim E. The Division of Labour in Society. – New York: Free Press, 1997. – P. 38-40.
6. Parsons T. The Social System. – Glencoe: The Free Press, 1951. – P. 15-25.
7. Luhmann N. Social Systems. – Stanford: Stanford University Press, 1995. – P. 34-36.
8. Giddens A. The Constitution of Society. – Berkeley: University of California Press, 1984. - P. 2-5.
9. Mannheim K. Essays on the Sociology of Knowledge. – London: Routledge, 1952. – P. 276-280.
10. F.Muxammedjanova Axborot globallashuvi va yoshlar maʼnaviyati//Yoshlarni axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish texnologiyalari:nazariya va amaliyot Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari. Toshkent, 2012.B – 32.
11. Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – P. 89–110.
12. Luhmann N. Social Systems: Outline of the General Theory. – Stanford: Stanford University Press, 1995. – P. 34–51.
13. Социально-молодежная работа: международный опыт : учебно-методическое пособие. – Москва, 2014. С – 57.
14. Ядов В. А. Социологическое исследование: методология, программа, методы. – М.: Наука, 2003. – С. 57–63.
15. Dahrendorf R. Class and Class Conflict in Industrial Society. – Stanford: Stanford University Press, 1959. – P. 112–130.
16. N.Joʻraev. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. – T.: Maʼnaviyat, 2002. – B.43.
17. Муминов А.Г Makhalla as the Center and the Conductor of Socio-political Development in Uzbekistan. Журнал: ISJ Theoretical & Applied Science, 2017, №4, P. 103-107

**REZYUME**

Mazkur maqola mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimining shakllanishi, subyektlari va guruhlari hamda ular oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini tahlil qiladi va tizimga taʼsir etuvchi omillarni ilmiy asosda yoritadi.

**Kalit soʻzlar:** mahalla, yoshlar bilan ishlash, subyektlar, ijtimoiy guruhlar, mexanizmlar, tizim, hamkorlik.

**РЕЗИОМЕ**

Данная статья анализирует формирование системы работы с молодежью в махаллях, ее субъекты и группы, а также механизмы сотрудничества между ними, раскрывая факторы, влияющие на развитие данной системы.

**Ключевые слова:** махалля, работа с молодежью, субъекты, социальные группы, механизмы, система, сотрудничество.

**RESUME**

This article examines the formation of the youth work system in mahallas, its key actors and groups, as well as the mechanisms of cooperation between them, scientifically outlining the factors that influence the development of this system.

**Keywords:** mahalla, youth work, actors, social groups, mechanisms, system, cooperation.